

**POETIK INDIVIDUALLIKNI YUZAGA CHIQRISHDA ZID MA’NOLI
SO‘ZLARNING AHAMIYATI (XURSHID DAVRON SHE’RIYATI
MISOLIDA)**

*SamDU 1-bosqich magistranti
Qurbonova Muharram Jurabekovna*

Annotatsiya: Bu maqola o‘zbek tilshunosligida tilning unsurlari, sintaktik figuralar va bular orqali adabiyotda ularning ahamiyatini izohlaydi. Shu bilan birgalikda, til va adabiyotning aloqasi uzviyligi tahlil etiladi.

Abstract: This article explains the elements of language, syntactic figures and their importance in literature in Uzbek linguistics. Together with this, the relationship between language and literature is analyzed.

Аннотация: В данной статье объясняются элементы языка, синтаксические фигуры и их значение в литературе в узбекском языкознании. Вместе с этим анализируется взаимосвязь языка и литературы.

Kalit so‘zlar: Antiteza, tazod, antonim, lingvopoetika, stilistik figura

Badiiy asar mutolaa qilar ekanmiz, bu jarayonda adabiyot va tilning bevosita bog‘liqligini, ularning go‘yo qush muvozanatini saqlovchi ikki qanotga o‘xshash ekanligining guvohi bo‘lamiz. Tilning har bir elementi poeziyada asarning pafosini, badiiy nafasini yoritib turadi. Jumladan, tilning stilistik figuralaridan bo‘lmish, antitezani olaylik. Antiteza-ritorik qarama-qarshilik, umumiy tuzilish yoki ichki ma’no bilan o‘zaro bog‘langan tushunchalar, pozitsiyalar, tasvirlar, holatlarning keskin qarama-qarshiligidan iborat badiiy yoki notiqlik nutqidagi ziddiyatning stilistik figurasi hisoblanadi. “Tabiat va jamiyatdagi ko‘plab narsa va hodisalarning mohiyati, insonlarning xarakteri ularni bir-biriga qiyoslash, taqqoslash, chog‘ishtirish asosida oydinlashadi. Badiiy adabiyot tilidagi antiteza usuli ham bir-biriga nisbatan qarama-qarshi ma’nolarni beradigan so‘zlarni, iboralarni bayonda yonma-yon qo‘llash orqali obrazlilikni keltirib chiqarishga asoslangandir. “Bayonning bunday vositasi yoqimlidir, – deydi Aristotel “Ritorika” asarida, – chunki qarama-qarshilik anglash uchun qulaydir, agar ular yonma-yon tursa yana ham tushunarlidir, yana shuning uchun qulayki, bu vosita isbot qilish, ziddiyatlarni qiyoslash bo‘lganidan sillogizmga yaqinlashadi”.¹ Professor S.Karimov aytganlaridek: “Badiiy uslubda antiteza yordamida ham xarakterlar qirralari aniq reallashadi, ham ifoda obyektini kengroq planda ochiladi”.² Shoir Xurshid Davronning “Kuz ertagi” she’riga diqqatimizni qarataylik: “Senga uni yoz deb ko‘rsatdim. Holbuki u qahraton edi-Bizga kuz kerak

¹ Каримов Суюн Амирович. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари.-Самарқанд. 1994. 45-бет

² Каримов Суюн Амирович. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари.-Самарқанд. 1994. 45-бет

edi”.³ Demak, antiteza zidlashish hodisasi ekanligini hisobga olar ekanmiz, yuqoridagi parchada matn ichidagina antonimlikni vujudga keltirgan o‘ziga xos so‘zlarni uchratamiz: “Yoz” va “qahraton” so‘zlari ma’no jihatidan zidlanadi, chunki tabiat fasli sifatida yoz issiq, ba’zan jazirama kunlarni ifodalasa, qahraton esa odatda qish faslidagi eng sovuq kun sifatida qaraladi. Matn ichida shoir bu so‘zlarning bir-biriga zidlanishini va bu orqali she’rning ta’sirchanligini oshirgan. Yoz va qish juftligidagi antonimlarni ko‘p uchratganmiz, ammo yoz va qahraton biz uchun yangilik bo‘ldi. She’rning tahlili davomida uchratgan eng yangi va insonni hayratga soluvchi bir jozibali zidlik sifatida hech ikkilanmasdan quyidagi baytni keltirish mumkin: “Senga uni manzil deb ko‘rsatdim, Holbuki, u ostonaga edi- Bizga yo‘l kerak edi”. Parchadagi manzil so‘ziga diqqatimizni qarataylik, u lug‘aviy jihatdan inson borish uchun ko‘zlagan yer bo‘lib, ostonaga so‘zi she’r ichida unga zidlashtirilgan. Chunki ostonaga uyingning endi bosiladigan qadami hisoblanadi, u uyga kirish va chiqish vazifasini o‘taydigan o‘ziga xos ko‘prik, ostonaga endi bosiladigan qadam, shaylangan harakat tarzi sifatida qaralsa, manzil esa yetilgan va erishilgan maqsaddir. Demak, matn ichida bu ikki tushuncha bir-birini zidlab kelmoqda va antitezani vujudga keltirmoqda. Endi, xuddi shu she’rdagi boshqa bir zidlanishni tahlil qilamiz: “Senga uni non deya tutdim. Ochlik endi holbuki u, Biroq, qon kerak edi”. Bu parchada “non” va “ochlik” so‘zlari matn ichida ochliq-to‘qlik tarzidagi zidlikni keltirgandek bo‘ladi go‘yo. Chunki biz bilamizki, non iste’mol ozuqasi sifatida inson ochlik hissini to‘ydiruvchi ne’mat hisoblanadi va albattaki ichki ma’nosida to‘qlik tushunchasini o‘zida jo etadi. Ko‘riniladiki, bu antonim juftlikda non-to‘qlik talqinini berar ekan, matn ichidagi shoir ijodiga xos eng go‘zal tazodning guvohi bo‘lamiz. She’riy parchalardagi ziddiy tushunchalarni shunchaki ritmik uyg‘unlikni keltiruvchi qurol emas, balki qalb qulfini ochuvchi kalit sifatida qarash lozim: “Senga ana, erk, deb ko‘rsatdim, Qo‘llarida zanjir bor edi, Uzmoq kerak edi zanjirni”. Parchadagi erk va zanjir so‘zlariga diqqatimizni qaratamiz: Erk-inson, umuman olganda butun bir borliq uchun berilgan ozodlik nashidasi, zanjir esa kishanlovchi, erkni bog‘lovchi, ozodlikdan ayiruvchi predmet sifatida qaraladi. Shoir she’rda erk va erksizlik, erk va mahkumlik, erk va zindonband kabi ko‘plab antonimlarni chetlashtirgan va ularni ham lol qoldirgan holatda matn ichida erk va zanjir so‘zlarini bir-biriga zidlaydi, bu tinglovchi aqlini shoshiradi, ammo hech qanday e’tirozni yuzaga keltirmaydi, chunki bu antonim juftlik o‘z o‘rnida va mantiqiy izchillikka asoslanib qo‘llangan eng samarali, yozuvchi poetik mahoratini belgilovchi unsur sanaladi. Bundan tashqari, aynan ziddiyatni keltirgan ammo antonim deyish biroz mushkul bo‘lgan so‘z turkumlari orasida ham shoir antonimlikni yuzaga chiqaradi, masalan: “Senga bu so‘nggi jang, dedim- Holbuki, birinchi jang edi”. So‘nggi va birinchi so‘zlarini antonimlikda qo‘llar ekanmiz, birinchi so‘zining qadimgi

³ 3Xurshid Davron. Bahordan bir kun oldin. -Toshkent: Sharq, 1997. 12-13-betlar

turkiy tilda ilk, avval degan maʼnolar kasb etganini hisobga olamiz va bu bilan soʻnggi soʻziga avvalgi, ilk degan tazodlarni yoʻnaltiramiz. Bu albatta matn ichida alohida ziddiyatli ahamiyatini keltirib chiqaradi. Sheʼrni yakunlar ekanmiz, eng soʻnggi baytda ham shoir yuksak isteʼdod bilan yangi bir ziddiyatni bizga taqdim etagnining guvohi boʻlamiz: “Oʻlim mana shu, dedim senga, Holbuki, bu mangulik edi”. Oʻlim-inson hayotining yakunlanish hodisasi, unga hayot, boqiylik, tiriklik, tirik kabi sozlarni ham zidlash mumkin, ammo shoir bular ichidagi eng kuchli ahamiyatga ega boʻlgan soʻzni-mangulikni qoʻllaydi. Bu orqali esa oʻlim va mangulik antonimlari vujudga keladi. Shoir sheʼriyati misolida tilimizga xos boʻlgan antiteza hodisasining guvohi boʻldik, bular oddiy emas, balki matn ichida alohida ahamiyatga ega boʻlib, oʻzbek tilining naqadar jozibakor ekanligini yana bir bor isbotlaydi. “Fikrning jonli, betakror, individual tarzda bayon etilishi, ifoda tasvir vositalarining, jumladan oʻxshatish, metafora, metonimiya, epitetlarning, poetik sintaksisning faolligi, sinonimiya va koʻpmaʼnolilikning, tasvirda koʻpplanlilikning boʻlishi, antiteza, shakldoshlik, oddiy soʻzlashuv, jargon-dialektal elementlarning, boshqa funksional uslubga xos birliklarning uchrashi, feʼllarning, sifatlarning, olmoshlarning koʻp qoʻllanilishi va bularning barchasining katta bir vazifaga – obrazlilik va emotsionallikka xizmat qildirilishi ana shu uslubiy belgilardir”.⁴ Darhaqiqat, Antiteza stilistik figura sifatida qarama-qarshi narsalarga eng keskin kontrast beradi, ongda aniq tasvirlarni uygʻotadi. Qarama-qarshilik fikrni charxlaydi, matnni yoki uning bir qismini tartibga solishga yordam beradi, buning natijasida parallel figuralar, ayniqsa antitezalar matn yaratish vositasi sifatida ishlatiladi. Oʻrganilgan material asosida biz nutqni jonlantirish, unga hissiylik, ekspressivlik, tasviriylikni berish uchun ular stilistik sintaksis usullaridan, yaʼni figuralardan foydalanishlarini aniqladik.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Каримов Суюн Амирович. Бадий услуб ва тилининг ифода тасвир воситалари.-Самарқанд. 1994.
2. Каримов Суюн Амирович.Ўзбек тилинингбадий услуби. -Самарқанд: Зарафшон, 1992.
3. Umirova S. Oʻzbek sheʼriyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik (Monografiya). –Samarqand: Ipak yoʻli, 2021. –B 236.
4. Xurshid Davron.Bahordan bir kun oldin. -Toshkent: Sharq, 1997.

⁴ Каримов Суюн Амирович.Ўзбек тилининг бадий услуби. -Самарқанд: Зарафшон, 1992.